

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.H.Axmedova

Ingliz nasrida viktoriyan davri ahamiyati 210

M.Abdullayeva

Shoir Hayratiy "Sayohatnoma"sining lingvokulturologik tahlili va tadqiqi 213

TILSHUNOSLIK**Sh.A.Aliyeva**

Matn maqomidagi grafema va semantik derivatsiya 216

M.S.Ishanjanova

Lingvokultural kodlarning mazmuniy tizimi 220

D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova

Professor A.Mamajonovning o'zbek xalq maqollaridan foydalanish mahorati 224

R.A.Achilova

Ingliz tilidagi allyuziyalarning lingvolturologik tadqiqi 228

M.A.Mo'minova

"Til portfellari" integrativ texnologiyasi (ingliz tili misolida) 231

N.N.RadjabovIngliz va o'zbek tillarida undoshlarning fonetik va grafemik xususiyatlarida izomorfizm
va allomorfizm 235**M.X.Hakimov**

Nutqiy akt va intonatsiya 242

G.A.Musayeva

Oziq-ovqat texnologiyasi darslarida Wiki texnologiyasi asosida yozma nutqni o'qitish 246

U.B.Usmonova

Tilshunoslikda publisistik matn tadqiqiga yangicha qarash 251

Z.S.Tashtemirova, N.M.Izbayeva

Ko'p tillilik tushunchasi haqida 254

F.Sh.Alimov, R.A.Faxriddinova

Raqamlashtirish sharoitida yozma nutqni shakllantirishning lingvistik omillari 259

A.L.Melikuziev

Nolisoniy semiotik sistema va uning elementlari 265

FANIMIZ FIDOYILARI

АКАДЕМИК МАХМУД САЛАХИТДИНОВИЧ САЛАХИТДИНОВ 269

TILSHUNOSLIKDA PUBLITSISTIK MATN TADQIQIGA YANGICHA QARASH**НОВЫЙ ВЗГЛЯД НА ИССЛЕДОВАНИЕ ЖУРНАЛИСТСКОГО ТЕКСТА В
ЛИНГВИСТИКЕ****A NEW LOOK AT THE STUDY OF JOURNALISTIC TEXT IN LINGUISTICS*****1Usmonova Umida Baxtiyorovna***

¹Jizzax davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til kafedrasiga katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada matn tadqiqi haqida so'z boradi va matn tadqiqi bilan shug'ullanuvchi matn tilshunosligi sohasi taraqqiyoti haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bu yo'nalishda dastavval jahon tilshunosligida salmoqli ishlar amalga oshirilganligini ta'kidlangan. Bugungi kunda zamонави tilshunoslikda publitsistik mantga yondoshuv, uni tadqiq qilish yangi boshqichga ko'tarilgan.

Аннотация

В этой статье обсуждаются текстологические исследования и предоставляется информация о развитии области текстовой лингвистики, которая занимается текстовыми исследованиями. Было отмечено, что в мировой лингвистике в этом направлении проделана значительная работа. Сегодня в современном языкоznании подход к публицистическому языку и его исследованию вышел на новый уровень

Abstract

This article discusses textual studies and provides information on the development of the field of textual linguistics, which deals with textual studies. It was noted that significant work has been done in this direction in world linguistics. Today in modern linguistics the approach to journalistic language and its research has reached a new level.

Kalit so'zlar: matn, asar, ma'no, munosabat, matnning mohiyati, nutqiy jarayon, stilistika, nutq, subyekt.***Ключевые слова:*** текст, произведение, смысл, отношение, суть текста, речевой процесс, стилистика, речь, предмет.***Key words:*** text, work, meaning, attitude, essence of the text, speech process, stylistics, speech, subject.**KIRISH**

Butun dunyoda ilmiy g'oyalarning yaxlitlanishi natijasida turli ilmiy sohalar chegarasida yangi yo'nalishlar paydo bo'lib, shakllanib bormoqda. Shu ma'noda matn tilshunosligi yo'nalishi ham o'zining bir qator rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi. Bu sohada matn lingvistik tadqiqot obyekti sifatida e'tirof etilmoqda.

Matn tadqiqi haqida so'z borar ekan, albatta, matn tilshunosligi sohasi taraqqiyotiga to'xtalmaslikning iloji yo'q. Bu yo'nalishda dastavval jahon tilshunosligida salmoqli ishlar amalga oshirilganligini ta'kidlash joiz. V.G.Admoni, N.F.Alefirenko, I.V.Arnold, N.S.Valgina, E.A.Goncharova, YU.M.Lotman, Z.YA. Turaeva, K.A.Filippov, O.I.Moskalskaya, L.M.Loseva, V.V.Odinsov, I.R.Galperin, L.A.Novikov[1.21] kabi olimlar aynan matn lingvistikasining tadqiqotchilarini hisoblanadi.

Matn nazariyasi, matn lingvistikasining umumiyligi shakllanishiga va rivojida chex(pragalingvistik to'garaki vakillari), nemis, fransuz, ingliz, amerika, golland, polyak va boshqa tilshunoslik maktablari vakillarining xizmatlari dunyo tilshunosligida e'tirof etilgan va doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlarda tilga olinadi. Rus tilshunosligida ham matn nazariyasi va lingvistikasi muammolari V.V.Odinsov, I.R. Galpiren, O.I.Moskaliskaya, L.M.Loseva, YU.M.Lotman kabi ko'plab tilshunoslar tomonidan o'rganib kelinadi.

Turkiy xalqlar tilshunosligida esa tamal toshi 1970-yillarining boshida taniqli tatar tilshunosi M.Zakiyev tomonidan qo'yildi. Dastlab u bog'li nutqni mustaqil gaplar o'tasidagi aloqani o'rganmasdan turib tadqiq etib bo'lmashagini, chunki bog'li nutq hamisha turli usullar bilan o'zaro bog'langan gaplar zanjiridan iborat bo'lishini, shunga ko'ra bog'li nutqda gapdan yirik va murakkab bo'lgan "murakkab sintaktik butunlik" deb ataladigan birliklar ajratilishini (ular obzatsning qismi, obzats, yaxlit bob, ba'zan hatto yaxlit asar va shu kabilarga teng bo'lishini) ta'kidlaydi va yozadi: "bog'li nutqda murakkab sintaktik butunlikni ajratish sof metodik maqsadni nazarda tutadi, u nutqning asosiy birligi bo'la olmaydi va boz ustiga gapga qarama qarshi qo'yilishi mumkin emas".

O'zbek tilshunosligida esa A.G'ulomov, M.Asqarova, I.Rasulov, A.Mamajonov, M.To'xsonov, N.Turniyozov, M.Xakimov, E.Qilichyev, M.Abdupattoyev, M.Yo'Idoshyev, M.Qurbanova[2.105] kabi olimlar matnning semantik, grammatick, stilistik va pragmatik strukturasi to'g'risida izchil tadqiqotlar olib bordilar. O'zbek tili ilmida birinchilardan bo'lib akademik G' Abdurahmonov 1980-yilning 10-12-sentiyabrida Toshkentda bo'lib o'tgan turkiyshunoslarning III konferensiyasida matn nazaryasiga bag'ishlangan ma'ruza qilib, muammoning mohiyati va echimlari haqida o'z fikrlarini bildirgan, bir qator matn turlari ajratib ko'rsatgan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ulkan tilshunos A.G'ulomov matnning mohiyati bo'yicha o'zining qimmatli fikrlarini bayon qilgan. U dunyo tilshunosligida kechayotgan jarayonlardan muttasil boxabar keng qamrovli olim sifatida "Hozirgi o'zbek tili. Sintaksis" darsligi (M.Asqarova bilan hamkorlikda)ni qayta ishlab, to'ldirib, uchinchi nashrini tayyorlar ekan matn masalasini chetlab o'tolmaydi, ixcham bir tarzda bo'lsada, matn haqidagi qarashlarini kitobga kiritadi.

Ko'rinib turganiday, A.G'ulomov o'zbek tili faktlaridan kelib chiqqan va dunyo tilshunosligidagi turli qarashlarni inobatga olgan holda matnning tabiatini va mohiyatini aniq ko'rsatib bergen.

M.To'xsonov o'zining nomzodlik dissertatsiyasida makromatn va mikromatnni farqlagan holda o'zbek tilidagi mikromatn tarkibidagi unsurlarni bog'lovchi vositalar sistemasini tadqiq etgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida matn lingvistikasi bo'yicha umumlashtiruvchi, ta'limiylar xarakterdagi ilk ishlardan birini A.Mamajon yaratgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Keyinchalik A.Mamajonov shogirdi M.Abdupattoyev bilan hamkorlikda nashr etilgan o'quv qo'llanmasida matnning struktur-semantic va stilistik jihatlari matn birliliklari temma-rematik munosabat atroflicha tahlili qilingan va tegishli xulosalar umumlashtirilgan. [3.36]

N.Turniyozovning qo'llanmasi ham ana shunday ta'limiylar xarakterdagi ishlardan biri bo'lib, unda tegishli o'quv rejasiga muvofiq matn haqida umumiylar ma'lumot mikro va makromatn tushunchalari, matn uzvlari orasidagi turli munosabatlar kabi mavzular bo'yicha ilmiylar ma'lumotlar berilgan.

Matn muammolari bilan jiddiy shuhullangan o'zbek tilshunoslardan yana biri M.Hakimovdir. U asosiy maqsadi "ilmiy matn va uning birlklari orasidagi mazmuniy munosabatlarni ifoda etuvchi bog'lovchilar, ularning o'ziga xos xusuiyatları va o'ziga xos vazifalarini aniqlashga yo'naltirilgan ishlarga xissa qo'shish, ilmiy matnda muallifning xususiy munosabati hamda uning turlarini belgilash" dan iborat bo'lgan nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini boy faktik materiallar asosida batafsil tadqiq etgan.[4.87]

Matn lingvistikasi tilshunoslikning alohida sohasi, yo'nalishi sifatida shakllanib bo'ldi, bugun u muttasil rivojlanib bormoqda, yangidan yangi nazariy umumlashmalar qilinmoqda. Ayni payitda ona tili va chet tillarni o'qitish amalyotida ham bu fan sohasi o'ziga xos munosib o'rinni egalladi. Buni bugun inkor etadigan mutaxassisning o'zi yo'q. "ammo hayratlanarlisi shundaki – deb yozadi rus tilshunosi E.S Kubryakova bu fan sohasi o'zining bosh obyekti matnning umume'tirof etilgan tarifiga ega emas va bu yo'nalishdagi har bir tadqiqot matnning nima ekanligi va bu termin bilan ifodalanadigan hadisaning qanday bilgi yoki xususiyatlar bilan xaraktirlanishi haqidagi mulohazalar bilan boshlanadi".

Shuni takidlash lozimki, matn tushunchasini material jihatdan tayin etish va tariflashda mataxassislardan o'rtaida yagona fikr yo'q. Aksincha biri-biriga qarama-qarshi ikki xil qarash mavjud. Ayrim tilshunoslardan faqat yozma shakldagi yaxlit nutq yoki nutq parchasini matn deb hisoblaydilar.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ammo matn yozma yoki og'zakiligi uning ontologiyasi va funksional stilistikaga bog'liq yoki bog'liq emasligi muallif tomonidan aniq ko'rsatib berilmagan. Matnning mohiyati va kommunikatsiya jarayonida bajaradigan vazifasi faqat yozuv bilan chegaralanadigan bo'lsa, bu yirik kommunikativ birlikning tilda o'rni qanday belgilanishi haqidagi masala ochiq qolgan. Aytish kerakki, matn lingvistikasi muammolari bilan jiddiy shug'ullanadigan juda ko'pchilik tilshunoslardan matnning ham og'zaki ham yozma bo'laverishi mumkinligini aytadi.

Chindan ham shu fikr ilmiy-mantiqiy jihatdan to'la asosga ega va u matnning mavjud mohiyatini to'g'ri aks ettiradi. Z.Y.Turayeva matn lingvistikasining umumiylar nazaryalarga ko'ra uning predmiti sifatida og'zaki va yozma nutq mahsuli bo'lgan matnni olish mumkinligini aytadi, ammo

TILSHUNOSLIK

matnni tor ma'noda, ya'ni faqat yozma nutq mahsuli sifatida talqin qilish maqsadga muofiq ekanligini takidlaydi. Agar og'zaki nutqni bir yo'nalishliylik farqlab tusa, matnga ko'p o'Ichovliylik xosdir. Og'zaki nutq bir yo'nalishlidir, chunki u faqat tovush orqali gavdalana oladi. Yozuv uning sifatini o'zgartiradi. Shunday qilib og'zaki nutq qaytishsizdir, ya'ni aytildimi uning biror parchasiga qaytish mumkin emas. Matn ko'p o'Ichovlidir, chunki uning istalgan bo'lagiga ko'p marta qaytish mumkin. Agar nutq harakat jarayon bo'lsa, nutq ikki yoqlama tabiatga ega, ya'ni u ham tinch holda ham harakatda bo'la oladi. Agar nutqning zamonda mavjudligi shu nutqning talaffuzi vaqt bilan chegaralangan bo'lsa, matnning mavjudligi amalij jihatdan hech narsa bilan chegaralanmagan.

O'zbek tilshunosligidagi bu yo'nalishdagi ishlarga e'tibor qilinsa, ularda ham yuqoridaqiga o'xhash mulohazalar yo'q emas. Masalan, M.Hakimovning nomzodlik dissertatsiyasida mana bunday fikrlarni o'qish mumkin: "... Nutq bu so'zlovchining nutqiy jarayon bilan aloqador hodisa sifatida ifoda etilsa, matn ham ana shu hodisaning yozilgan (bosma harf orqali aks etgan) parchasidir... "nutq" o'zining yozma shaklida "matn" atamasiga teng keladi... Matn bir vaqtning o'zida emas, balki bir necha asr avvalgi va keyingi shaxslar o'rtasidagi aloqa munosabatini yuzaga chiqaruvchi vositadir".

XULOSA

Avvalo aytish joizki, kishilar o'rtasidagi aloqa kommunikatsiya matnlar vositasida amalga oshar ekan (va bu hol matn lingvistikasining yaratuvchilari, umuman matn tadqiqotchilarining aksariyati tarafidan e'tirof etilgan ekan), matnni faqat yozma shakl bilan chegaralash shakllanib ulgurgan mavjud matn nazariyasi qoidalariga zid bo'lishi turgan gap. Axir, kishilar o'rtasidagi har qanday kommunikatsiya faqat va faqat yozma shaklda amalga oshishini tasavvur etib bo'lmaydi.

Sintaksisning asosiy birligi gap ekanligi hamisha e'tirof etilgan, matn yoki uning birliklari gapdan yirik, oliy sintaktik kommunikativ birliklar hisoblanishi lozimligi bugungi matn lingvistikasining asosiy qoidalaridan biriga aylanib ulgurdi. SHunday ekan, faqat yozuvda aks etgan gapningina gap deb, og'zaki nutqdagi gapni gap bo'lmaydi deyish to'g'ri bo'lmasligini isbotlab o'tirishning hojati yo'q, albatta.

Umuman aytish mumkinki, matn ham til birligi, ham nutq birligidir, degan qarash bugun ancha keng tarqalagn.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қаранг: Адмони В.Г. Основы теории грамматики. М.;Л., 1964; Алефиренкон Ф., Голованева М.А, Озерова Е.Г., Чумак-Жунъи И.И. Текст и дискурс. Учебное пособие. Москва. "Флинта". 2013; Арнольд И.В. Семантика, стилистика, интертекстуальность. СПб, СПбГУ, 1999;
2. Қаранг: Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис.—Тошкент: Ўқитувчи, 1987; Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х.“Ўзбек тили стилистикаси”. Тошкент, 1983; Мамажонов А. Текст лингвистикаси.—Тошкент, 1989; Ҳакимов М. Ўзбек тили матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари, АҚД.—Тошкент, 1993; Қурбонова М., Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. Ўқув кўлланма. Т.: “Университет”, 2014; Қиличев Э. Ўзбек тили амалий стилистикаси.—Тошкент. “Ўқитувчи”, 1992; Абдулаттоев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар. НДА, Тошкент, 1998
3. Мамажонов А., Абдулаттоев М. Матн синтаксиси. Фарғона, 2002. (Mamajonov A., Abdulattoev M. Text syntax. Fergana, 2002.)
4. Ҳакимов М.Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: филол. фан.н-ди...дисс.-Т.,1993. (Hakimov M. Syntagmatic and pragmatic features of the Uzbek scientific text: Philology. science.n-di...diss.- T., 1993.)